O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Quritilgan uzumni realizatsiya qilish va tovar sifatini nazorat qilishga oid standart

(ЕЭК ООН DDP-11:2016, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #Z229HHIUB9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21 iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart ЕЭК ООН DDP-11:2016 “Concerning the marketing and commercial quality control of dried grapes” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #Z229HHIUB9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Muqaddima

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati bo‘yicha ishchi guruhi

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YEIK) tomonidan ishlab chiqilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga, yuqori sifatli ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga, rentabellikni oshirishga va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi. BMT YEIK standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, importerlar, exporterlar va boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Mazkur standartlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng doirasini, jumladan, yangi uzilgan meva va sabzavotlar, quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida qo‘shimcha ma’lumot olish uchun veb-saytimizga murojaat qiling: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Quritilgan uzum uchun yangi Standart ECE/CTCS/WP.7/2016/11-sonli hujjatga asoslangan bo‘lib, u Ishchi guruhning yetmish ikkinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan.

Ushbu nashrda foydalanilgan atamalar va materiallarning taqdim etilishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kotibiyatining har qanday mamlakat, hudud, shahar yoki mintaqaning yoxud ularning ma’muriy organlarining huquqiy maqomi, shuningdek, ularning chegaralari yoki hududiy chegaralarining belgilanishi to‘g‘risida har qanday fikrni ifodalashini anglatmaydi. Kompaniya nomlari yoki tijorat mahsulotlarining tilga olinishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ma’qullanganligini anglatmaydi.

Barcha materiallardan erkin iqtibos keltirish yoki ularni qayta nashr etish mumkin, ammo manbaga havola ko‘rsatilishi so‘raladi.

Har qanday fikr-mulohazalar yoki so‘rovlar bilan quyidagi manzil orqali biz bilan bog‘lanishingiz mumkin:

Qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘limi
Iqtisodiy hamkorlik va savdo bo‘limi
Birlashgan Millatlar Tashkilotining
Yevropa iqtisodiy komissiyasi Millatlar saroyi
CH-1211 Jeneva 10, Shveysariya
E-mail: agristandards@unece.org

STANDARTLAR INSTITUTI #Z229HHIUB9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

QURITILGAN UZUMNI REALIZATSIYA QILISH VA TOVAR SIFATINI NAZORAT QILISHGA OID STANDART

СТАНДАРТ, КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА СУШЕНОГО ВИНОГРАДА

STANDART CONCERNING THE MARKETING AND QUALITY CONTROL OF DRIED GRAPES

Amalga kiritish sanasi: 2026 yil 1-avgustdan

I. Mahsulot ta’rifi

Mazkur standart bevosita iste’mol qilish uchun mo‘ljallangan, *Vitis vinifera L.* navlaridan (kulturalaridan) yetishtirilgan urug‘li va urug‘siz quritilgan uzumlarga nisbatan qo‘llaniladi.

II. Sifatga oid qoidalar

Mazkur standartning maqsadi eksport nazorati bosqichida, tayyorlash va qadoqlashdan so‘ng quritilgan uzumga qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, agar ushbu talablar eksportdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilsa, mahsulot egasi/sotuvchi standart talablariga rioya etish uchun mas’ul hisoblanadi. Ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlar egasi/sotuvchi bunday mahsulotlarni namoyish etishi, sotish uchun taklif qilishi, yetkazib berishi yoki boshqa har qanday usulda realizatsiya qilishi mumkin emas.

A. Minimal talablar[1]

Barcha navlarda, har bir nav uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan chetlanishlar (toleranslar) inobatga olingan holda, quritilgan uzum quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- butun (butunligicha saqlangan); biroq, yuzaki qismidagi kichik shikastlanishlar nuqson sifatida qaralmaydi;
- yaxshi sifatli; chirish yoki buzilish ta’siriga uchragan, iste’mol uchun yaroqsiz holga kelgan mahsulotlar chiqarib tashlanadi;
- toza, deyarli barcha ko‘rinarli begona moddalardan xoli bo‘lishi kerak;
- rivojlanishining har qanday bosqichida tirik zararkunandalardan xoli;
- zararkunandalar keltirib chiqargan shikastlanishlardan, shu jumladan o‘lik hasharotlar va/yoki kanalarning mavjudligi, ularning qoldiqlari yoki chiqindilaridan xoli;
- ko‘z bilan ko‘rinadigan mog‘or zamburug‘laridan xoli;
- yetilmagan (yaxshi rivojlanmagan) g‘o‘ra (rezavorlar) dan xoli;
- uzunligi 3 mm dan ortiq bo‘lgan bandchalar (qoldiq bandlar) dan xoli, bandlari bilan taqdim etilgan partiyalar bundan mustasno;
- ko‘z bilan ko‘rinadigan shakar kristallaridan xoli;

_____

Rasmiy nashr

[1] *Atamalar va nuqsonlarning ta’riflari Standart maketning III ilovada keltirilgan – Quritilgan (po‘choqli yong‘oqlar va yong‘oq mag‘zi) va quritilgan mahsulotlar standartlari uchun tavsiya etilgan atamalar va nuqsonlar ta’rifi <www.unece.org/trade/agr/standard/dry/StandardLayout/StandardLayoutDDP_e.pdf>.*

STANDARTLAR INSTITUTI #Z229HHIUB9 - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILHLOO XO‘JALIGI VAZIRLIGI

• g‘ayritabiiy tashqi namlikdan xoli;
• begona hid va/yoki ta’mdan xoli, bundan natriy xlorid (osh tuzi) va/yoki kalsiy xloridning yengil sho‘r ta’mi hamda o‘simlik moyi va oltingugurt dioksidi (oltingugurt angidridi) ni o‘z ichiga olgan konservantlar/qo‘shimchalarning yengil hidi va ta’mi mustasno.

Quritilgan uzum mahsulotlarining holati quyidagi talablarga javob berishi kerak:
• tashish va yuk ortish-tushirish jarayonlariga bardosh bera olishi;
• belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi.

B. Namlik darajasi[2]

Quritilgan uzum mahsulotlarining namlik darajasi quyidagidan oshmasligi kerak:
Urug‘siz navlar uchun 18,0 foiz (Monukka navidan tashqari, u uchun 19,0 foiz);
Kishmish (mayiz) navlari uchun 20,0 foiz;
Urug‘li navlar uchun 19,0 foiz;
Konservantlar bilan ishlangan yoki boshqa usullar bilan konservatsiyalangan Malaga Muscatel navi uchun 31,0 foiz.[3]

C. Tasniflash

IV bo‘limning “yo‘l qo‘yiladigan/ ruxsat etilgan chetlanishlar oid qoidalar”ida keltirilgan nuqsonlarga muvofiq, quritilgan uzum mahsulotlari quyidagi uchta navga ajratiladi:
“Oliy nav” (Extra Class), I nav (Class) va II nav (Class).
Yo‘l qo‘yiladigan nuqsonlar mahsulotning sifati, saqlashga yaroqliligi va o‘ramdagi tashqi ko‘rinishiga ta’sir qilmasligi kerak.

III O‘lchamlarga (kalibrlashga) oid qoidalar

Barcha navlar uchun kalibrlash ixtiyoriydir. Kalibrlash quyidagi usullar bilan belgilanadi:

• elakdan o‘tkazish, ya’ni minimal diametri bo‘yicha; yoki
• hisoblash, ya’ni 100 gramm mahsulotdagi rezavorlar sonining maksimal miqdori bo‘yicha.

IV Yo‘l qo‘yiladigan/ ruxsat etilgan chetlanishlar oid qoidalar

Barcha sotuv bosqichlarida, ko‘rsatilgan navning minimal talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun har bir partiyada sifat va o‘lcham bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetga chiqishlarga (toleranslarga) ruxsat beriladi.

---

[2] Namlik darajasi Standart maketning I ilovasida keltirilgan usullardan biri yordamida aniqlanadi – Quritilgan mahsulotlar uchun namlik darajasini aniqlash www.unece.org/trade/agr/standard/dry/StandardLayout/StandardLayoutDDP_e.pdf>. Bahsli holatlarda laboratoriya nazorat usuli (referens usul) qo‘llaniladi.
[3] Gretsiyaning sultana yoki mayiz navlari uchun 15% va kashmish navlari uchun 16% namlik darajasini belgilash bo‘yicha e’tirozi (rezervatsiyasi).

STANDARTLAR INSTITUTI #Z229HHIUB9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

A. Sifat bo‘yicha ruxsat etiladigan chetlanishlar

Ruxsat etilgan nuqson turlari						
	Og‘irlik bo‘yicha foiz" (Massa ulushi)			Kalibrlanishi (100 grammdagi donalar soni)		
Yo‘l qo‘yiladigan nuqsonlar	Oliy nav	I nav	II nav	Oliy nav	I nav	II nav
(a) Minimal talablarga javob bermaydigan mahsulotlar uchun ruxsat etiladigan chetlanishlar						
Umumiy tolerans	6	10	15			
Yetilmagan rezavorlar						
— urug‘siz	2	3	5			
— urug‘li	2	5	8			
— kishmish (mayiz) uchun	1	2	5			
Mog‘orlagan[4]	2	3	4			
Zararkunandalar, quyosh kuyishi, mexanik shikastlanishlar						
— urug‘sizlar uchun	2	3	5			
— urug‘lilar uchun	3	4	5			
— kishmish (mayiz) uchun	1	2	3			
Tirik zararkunandalar (faqat urug‘siz navlar uchun)	0	0	0			
Urug‘siz turlarda urug‘i bo‘lgan rezavorlar				2	2	2
Bandi (capstem) bo‘lgan rezavorlar (vazn bo‘yicha %):*						
— urug‘sizlar uchun				3	4	5
— urug‘lilar uchun				3	4	5
— kishmish (mayiz) uchun				2	3	3
(b) Agar o‘lchami ko‘rsatilgan bo‘lsa, o‘lcham bo‘yicha ruxsat etiladigan chetlanishlar						
Ko‘rsatilgan o‘lchamga mos kelmaydigan mahsulotlar	10	10	10			
(c) Boshqa nuqsonlar uchun ruxsat etiladigan chetlanishlar						
Poya bo‘laklaridan tashqari begona o‘simlik qoldiqlari	0,01	0,02	0,03			
Mineral aralashmalar	0,01	0,01	0,01			
Qandlangan	5	10	15			
— Urug‘siz	6	10	15			
— Urug‘li/kishmish (mayiz)	5	10	15			
Poya bo‘laklari (1 kg dagi dona soni)				1	2	3

**Poya qoldiqlari bo‘yicha ruxsat etiladigan chetlanishlar faqat poya qoldiqlarisiz realizatsiya qilinadigan quritilgan uzum turlariga nisbatan tatbiq etiladi.*

[4] *Shveytsariya milliy qonunchiligi mog‘or bilan zararlangan mahsulotlar yoki tirik yoxud o‘lik hasharotlar mavjud bo‘lganda ruxsat etiladigan chetlanishlarga (toleranslarga) yo‘l qo‘ymaydi*

STANDARTLAR INSTITUTI #Z229HHIUB9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

V Taqdim etish (joylashtirish) qoidalari

A. Bir xillilik

Qadoqdagi mahsulotlarning har biri bir xil bo‘lishi hamda tarkibida faqat bir xil kelib chiqish, sifat, o‘lcham, tijorat turi, shuningdek, ko‘rsatilgan hollarda, hosil yili va/yoki naviga ega bo‘lgan quritilgan uzumlar bo‘lishi kerak.

Qadoq ichidagilarning ko‘rinadigan qismi butun mahsulot tarkibiga mos (vakillik qiluvchi) bo‘lishi lozim.

B. Qadoqlash

Quritilgan uzum mahsulotni to‘g‘ri himoya qiladigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza bo‘lishi hamda mahsulotga tashqi yoki ichki tomondan zarar yetkazmaydigan sifatga ega bo‘lishi lozim. Savdo belgisi (spetsifikatsiyasi) ko‘rsatilgan materiallardan, xususan, qog‘oz yoki shtamplardan foydalanishga, agar bosma matn yoki yorliq toksik bo‘lmagan siyoh yoki yelim yordamida bajarilgan bo‘lsa, ruxsat etiladi.

Qadoqlar IV bo‘lim “Ruxsat etiladigan chetlanishlar to‘g‘risidagi qoidalar”dagi chetlanishlar jadvaliga muvofiq, barcha begona moddalardan amalda xoli bo‘lishi kerak.

VI Markirovka qilish qoidalari

Har bir qadoq[5] quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak; bu ma’lumotlar bir tomonga guruhlangan, o‘qilishi oson (o‘chmaydigan) va tashqi tomondan aniq ko‘rinadigan bo‘lishi lozim:

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi:

Nomi va aniq manzili (masalan: ko‘cha/shahar/viloyat/pochta indeksi va, agar kelib chiqqan mamlakatdan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki milliy organ tomonidan rasman tan olingan kodli belgi[6].

B. Mahsulot turi

- “Quritilgan uzum”, “Mayiz” yoki “Kishmish”
- Tijorat turi:
  - “Urug‘siz” — o‘rinli bo‘lgan hollarda “Sultana” yoki “Tompson Sidless” (Thompson Seedless) deb almashtirilishi mumkin;
  - “Urug‘li”
- Navi nomi (ixtiyoriy);
- Taqdim etish shakli: “Shingilli” (o‘rinli bo‘lgan hollarda).
- “Bandli” (yoki “Poya qoldiqlari bilan”) (o‘rinli bo‘lgan hollarda).

C. Mahsulotning kelib chiqishi

[5] *Chakana savdo qadoqlari quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi shart: mahsulot nomi, sof vazni va kelib chiqqan mamlakati.*

[6] *Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchining nomi va manzilini aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kodli belgidan foydalanilganda, “qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi” (yoki shunga o‘xshash qisqartmalar) iborasi kodli belgi bilan birga, unga yaqin joyda ko‘rsatilishi shart. Agar mamlakat kelib chiqqan mamlakatdan farq qilsa, kodli belgidan oldin uni tan olgan mamlakatning ISO 3166 alpha mamlakat kodi qo‘yilishi kerak.*

STANDARTLASHNGITLAKZODHUS yilishi 2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• Kelib chiqqan mamlakat[7] va ixtiyoriy ravishda: yetishtirilgan tuman yoki milliy, mintaqaviy yoki mahalliy geografik nom.

D. Tijorat tavsiflari

• Nav
• O‘lchami (agar o‘lcham bo‘yicha saralangan bo‘lsa); III bo‘limga muvofiq ko‘rsatiladi;
• Hosil yili (ixtiyoriy);
• “Yaroqlilik muddati” (Best before), ketidan sana ko‘rsatiladi (ixtiyoriy);
• “Tabiiy usulda quritilgan” (ixtiyoriy).

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

Qabul qilingan sana: 1992-yil
Oxirgi tahrir: 2016-yil

[7] *To‘liq yoki umumiy qabul qilingan nom ko‘rsatilishi kerak.*

STANDARTLAR INSTITUTI #Z229HHIUB9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI